

VOYAGA YETMAGANLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARNING PROFILAKTIKASI

*IIV Surxondaryo akademik
litseyi huquqshunoslik fani o'qituvchisi
Turakulov Boyburi Kuzimuratovich*

Kalit so'zlar: oila, oiladagi muhit, huquqbuzarliklar, jinoiy xulq-atvor, nizo, sabab va sharoit, g'ayriijtimoiy munosabatlar.

Ключевые слова: семья, обстановка в семье, правонарушения, преступное поведение, конфликт, причины и обстоятельства, антисоциальные отношения.

Keywords: family, family situation, offenses, criminal behavior, conflict, causes and circumstances, anti-social relations.

Oilada huquqbuzarlik va jinoyatlarning sodir etilishiga hamda uni sodir etuvchi shaxslarda g'ayriijtimoiy xususiyatlar shakllanishiga oiladagi muhitning ta'siri o'ziga xosdir. Shunisi e'tiborliki, oiladagi nosog'lom muhit nafaqat huquqbuzarliklar, balki og'ir va o'ta og'ir jinoyat larning sodir etilishiga ham shart-sharoit yara tadi. Zero, "hech kim onadan jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi. Jinoyatchilik nomaqbul ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy muhitdagina ildiz otishi mumkin" [1].

Ma'lumki, oiladagi nosog'lom ijtimoiy-ruhiy muhit sabablarini o'rganish borasida turli davr larda turli soha mutaxassislari tomonidan qator tadqiqotlar olib borilgan. Bu muammoga bag'ish

langan ilmiy izlanishlarning predmeti bo'lib, har bir millat mentaliteti, o'sha jamiyatda ustuvor bo'lgan oilaviy qadriyatlar, urf-odatlar va marosimlar hisoblangan. Chunki oilada tarbiya lanayotgan farzandlarning shakllanishi oila a'zolari o'rtasida vujudga keladigan ijtimoiy muno sabatlar xususiyatiga bog'liq. Bu esa, o'z navbatida, oilada ijobiy yoki salbiy munosabatlar, nizolar hamda ularning oqibatlari to'g'risidagi tasavvurlarning shakllanishiga zamin bo'ladi.

Oilaning shaxs ma'naviy shakllanishidagi kriminologik ahamiyati shundaki, inson shaxsining poydevori shu joyda quriladi. Inson o'zini o'rab olgan dunyo haqidagi

dastlabki bilimni, yaxshi va yomon haqidagi, axloq normalari haqidagi dastlabki tasavvurni, birinchi tarbiyaviy saboqni oilada oladi, shaxs sifatida dastlabki qadamni oilada qo'yadi. Shuning uchun inson tarbiyasi u tug'ilgan kundan boshlanmog'i lozim [2]. Chunki oila bolaga muayyan g'oyaviy-siyosiy qarashlar asoslarini singdiradi, bola oilada axloq normalarini bilib oladi va ularni o'zlashtiradi, undagi dastlabki ko'nikmalar va xulq-atvor namunalari oilada shakllanadi [3] hamda bolaning xarakteri, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar, yaxshilik va ezgulik, oliyanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir [4].

Shunday ekan, oilada olingan tarbiya uning butun umri davomida berilgan boshqa ta'limtarbiyaga o'z ta'sirini o'tkazadi. Fikrimizcha, "tarbiyadan gap ochishdan ilgari oila va undagi ruhiy muhit haqida gap yuritish lozim bo'ladi" [5].

Aytish joizki, oiladagi muhit shaxsning shakllanishida o'zining ijobiy yoki salbiy tomondan ta'sirini ko'rsatadi. Olib borilgan tadqiqot natijalarining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, g'ayriijtimoiy salbiy xatti-harakatlarni sodir etgan 40-45 foiz voyaga yetmaganlarning ota-onasi ichkilikbozlikka berilgan, muntazam ravishda janjal va nizolar bo'lib turadigan nosog'lom oilalarda yashaydi.

"Ota-onalar tomonidan zulm ko'rsatilgan bolalar va o'smirlar" dasturi asosida ishlayotgan bir guruh amerikalik psixiatrlar tomonidan 76 nafar zolim ota-onalar shaxsi o'rganib chiqilganda, ularning faqat 7 foizi ruhiy sog'lom bo'lib, qolganlari, ya'ni 25 foizi ichkilikbozlar, 68 foizi esa jamiyatga zid turmush tarzi yurituvchi shaxslar ekanligi aniqlangan [6]. Oiladagi bunday nosog'lom muhit voyaga yetmaganlar ruhiy rivojlanishining yomonlashuvi, uzoq muddatli aqliy nosozlik va nosog'lomlik kabilardan iborat bo'lib, o'z navbatida, jismoniy nosog'likka ham olib kelishi mumkin [7].

Shunday omillar mavjud bo'lgan oilalarga jamiyat tomonidan yetarlicha yordam berilmasa, unda yashayotgan bolalarning bunday nosog'lom muhitdan jabr ko'rish xatari yuqori bo'lishi, o'z navbatida, qarindosh-urug'lar tomonidan ko'mak berilmasligi ham mazkur muammoni yanada og'irlashtirishi tabiiy.

Ta'kidlash joizki, ijtimoiy shart-sharoitning jinoiy xulq-atvor bilan aloqasi murakkab xususiyat kasb etadi [8]. Ba'zi hollarda bunday xulq-atvor jinoyatning sodir etilishiga olib keladi. Tadqiqotlarga ko'ra, voyaga yetmaganlarda salbiy xulq-atvorning paydo bo'lishi va ular tomonidan jinoyat sodir etilishini taqozo etuvchi kriminogen omillar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, oiladagi nosog'lom turmush tarzi natijasida vujudga kelgan salbiy odatlar oqibatidir. Ma'lumki, inson shaxs sifatida oilada shakllanadi, ijtimoiylashuv jarayonida oila individga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi uning muayyan ijtimoiy qiyofasini shakllantirishi lozim [9]. Oiladagi muhit shaxsning shakllanishida o'zining ta'sirini o'tkazishi bilan birga, unda ma'naviy-axloqiy fazilat va xususiyatlarning rivojlanish jarayonini ta'minlaydi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Kriminologik nuqtayi nazardan qaraganda, oiladagi nosog'lom ijtimoiy-ruhiy muhit kriminogen vaziyatlarni keltirib chiqaradi. Xususan, tadqiqot davomida o'rganilgan jinoyat ishlari tahliliga ko'ra, 42 foiz jinoyat sodir etgan shaxslar oilasida nosog'lom muhit hukmron bo'lgan, 27 foiz oiladagi shaxslar o'rtasida adovatning mavjud bo'lganligi va faqatgina 14 foiz holatda zo'rlik bilan sodir etilgan jinoyatlarning tasodifiy sodir etilganligi ma'lum bo'ldi. Bu shundan dalolat beradiki, oiladagi nosog'lom muhit oqibatida yuzaga kelgan nizo va kelishmovchiliklar oila-turmush munosabatlari doirasidagi huquqbuzarlik va jinoyatlarning sodir etilishiga turtki bergan. Zotan, oiladagi nosog'lom vaziyat, urish-janjal, oila a'zolari o'rtasidagi g'ayriijtimoiy munosabatlar va boshqa noqulay sharoitlar shaxsning ma'naviy jihatdan salbiy shakllanishida asosiy manba bo'lib hisoblanadi [10].

Xususan, jinoyatchi shaxslarning 50 foizidan ortig'i to'liqsiz oilada o'sgan, 32 foizining oilasi

“nosog'lom oila”lar qatorida bo'lgan [2, 77]. Zero, nosog'lom ijtimoiy-ruhiy muhitdagi shaxsning turmush tarzi yoki shunday holatda namoyon bo'luvchi salbiy harakatlari muayyan jinoyatlarning sodir etilishiga olib keladi. Bu, o'z navbatida, shaxs ongini buzadi, bu sohadagi ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlarni o'zgartiradi, ma'naviy qiziqish va ehtiyojlar doirasini toraytiradi [11].⁵⁰

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'ratmoqdaki, bugungi kunda oilalarda sodir etilayotgan zo'ra vonliklarning asosiy qismi muntazam ravishda ichkilikbozlikka ruju qo'ygan shaxslar oilasida sodir etilmoqda. Bunday noxush holatlarga chek qo'yish, to'g'rirog'i, ularning oldini olish uchun, avvalambor, oila mustahkamligi va barqarorligiga, uning to'liq va mukammal bo'lishiga erishish uchun, birinchi navbatda, oilada sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish lozim. Oiladagi sog'lom ma'naviy muhit odamiylik, insonparvarlik munosabatlarini shakllantirish bilan bir qatorda, oilada tarbiyalanayotgan voyaga yetmaganlarning ruhiy xususiyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatish, oila mustahkamligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Oilada nosog'lom turmush tarzining shakllanishida oiladagi shaxslar o'rtasida vujudga kela digan ijtimoiy munosabatlarning o'rni katta hisoblanadi. Ushbu munosabatlar shaxsda ijobiy xususiyatlarni shakllantirishi mumkin.

Bizningcha, oiladagi nosog'lom muhitning shakllanish shart-sharoiti quyidagilar bilan chambarchas bog'liqlikda namoyon bo'ladi: a) oila muhitiga tashqi salbiy omillarning ta'sir etishi; b) qarindosh-urug'lar o'rtasida mehr-oqibat tuyg'ularining yo'qligi; d) oilada oila a'zolarining spirtli ichimlik, giyohvandlik vositalari yoki tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishga odatlanganligi;

e) oila a'zolari o'rtasida doimiy janjal va kelishmovchiliklarning mavjudligi va h.k.

Shuningdek, shaxsning salbiy shakllanishini ta'minlovchi axloqqa zid omillarga quyidagilarni kiritish mumkin: a) biologik, ya'ni nasldan naslga o'tuvchi xususiyatlar; b) oiladagi ma'naviy-ruhiy muhitning zaifligi; d) oila a'zolari o'rtasidagi axloqqa zid bo'lgan xatti-harakatlar; e) muntazam ravishdagi janjal yoki kelishmovlik; f) oilada ota-onaning farzand tarbiyasiga e'tiborsizligi yoki mas'uliyatsizligi; g) oilada milliy qadriyat va an'analarga hurmatsizlik bilan munosabatda bo'lish va h.k. Oilada jinoyatlarning sodir etilishini ta'minlovchi nosog'lom ijtimoiy-ruhiy muhit jamiyat hayotining barcha sohalarida mavjud bo'lib, *birinchidan*, ular bir-biri bilan u yoki bu darajada bevosita yoki bilvosita bog'liqligini ta'minlovchi vosita bo'lib, biri ikkinchisiga yoki ikkinchisi birinchisiga o'z ta'sirini o'tkazishiga olib keladi;

ikkinchidan, bu omillar, birinchi navbatda, shaxsning ongi va ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda unda salbiy ma'naviy-ruhiy xususiyatlarning shakllanishiga ta'sir qiladi; *uchinchidan*, bu omillar jamiyatda shaxsga salbiy ta'sir etuvchi manbalarni shakllantiradi; *to'rtinchidan*, oiladagi salbiy ijtimoiy-ruhiy muhit ta'sirida shaxsda shakllangan dunyoqarash jamiyatda vujudga kelgan ijtimoiy-ruhiy muhit bilan aloqada shaxsning u yoki bu yo'lni tanlashini taqozo etadi.

Shu bois oilada ma'naviy-ruhiy muhitni sog'lomlashtirish uchun uni oziqlantiruvchi salbiy omillarni aniqlash, ularga to'siq qo'yish hamda zararsizlantirish borasida zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqish va uni amalga oshirish lozim.

Fikrimizcha, voyaga yetmaganlarning ma'naviy-ruhiy shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-ruhiy muhitni sog'lomlashtirish borasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir: *birinchidan*, oiladagi ijtimoiy-ruhiy muhitni sog'lomlashtirishga qaratilgan (tarbiyaviy ta'sir choralariga ega bo'lgan) dasturlar ishlab chiqish va uni amalga

oshirish; *ikkinchidan*, oila-turmush munosabatlari doirasida nizo keltirib chiqaruvchi janjalkash

shaxslarning turmush tarzini o'zgartirish maqsadida ular bilan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan

profilaktik suhbatlar o'tkazish; *uchinchidan*, bugungi kundagi mavjud muammolarni bartaraf etish borasida oiladagi ijtimoiy-ruhiy muhitni sog'lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va uni ijtimoiy hayotga joriy etish; *to'rtinchidan*, oilada axloqqa va qonunga zid xatti-harakatlardan tiyib turadigan qadriyatlarni tiklash, saqlash va rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarni yanada kuchaytirish; *beshinchidan*, doimiy ravishda sog'lom ijtimoiy-ruhiy muhitni targ'ib qilish borasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jumladan, mahalla tizimi hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining imkoniyatlaridan to'liq foydalanish; *oltinchidan*, bolalarni tarbiyalash borasidagi majburiyatlarni bajarmaganlik uchun ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning mas'uliyatini oshirish; *yettinchidan*, shaxsga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi manbalarni

aniqlash, ularni ilmiy jihatdan o'rganish, tahlil etish, zararsizlantirish va uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A Bunyodkorlik yo'lidan. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – B. 147.
2. Ismailov I. Jinoyatchilikda uyushganlik: nazariya va amaliyot. – Toshkent. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2005. – B. 97.
3. Ota-Mirzayev O.B. G'aniyeva M.X., Latipova N. va boshq. Oila ma'naviyati: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2007. – B. 9.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 52.
5. Yo'ldoshev M. Oilada ruhiy muhit va uning tarbiyaga ta'siri. – Toshkent, 2004. – B. 5.
6. Клевцова Н.А. Убийства детей, совершаемые в семье. // Российский следователь, – Москва, 2009. №13. – С. 17.
7. Bolalarga nisbatan zo'ravonlik bo'yicha butunjahon hisoboti. – Toshkent, 2009. – B. 174.
8. Abdurasulova Q.R. Profilaktika – tarbiyaviy chora-tadbirlar asosi. Vola va zamon. – Toshkent, 2008. – №14. – B. 24.
9. Xo'janiyozov T. Oila tarixi va huquq. – Toshkent. 2006. – B. 252.
10. Kriminologiya: Darslik. – Toshkent, 1996. – B.142.
11. Ismailov I. Uyushgan jinoiy tuzilmalar faoliyatining oldini olishni nazariy va tashkiliyhuquqiy ta'minlash: yurid. fan. dok.... dis. avtoref. – Toshkent, 2006. – B. 24.